



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TERGOV SUDYASI INSTITUTINING HUQUQIY ASOSLARI VA AMALIYOTI

Jo'raqulov Doniyor Davlatovich

Jamoat vaxfsizligi universiteti

Magistraturasi talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi tergov sudyasi institutining huquqiy asoslari va amaliyoti qisqacha yoritib berilgan. Chet davlatlar tajribasi asosida shakllangan modellar xamda O'zbekiston Respublikasi huquqiy tizimiga joriy etilishi jarayonlari yoritib berilgan. Shuningdek, tergov sudyasi instituti orqali shaxs huquq va erkinliklarini samarali ximoya qilish, protsesual kafolatlarni ta'minlashdagi ahamiyati ilmiy-nazariy asosda ko'rib chiqiladi. Maqolada tergov sudyasining vakolatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, tergov sudyasi faoliyatining konstitutsiyaviy va qonunchilik asoslari, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining tegishli normalari, "Sudlar to'g'risida"gi Qonun hamda Prezident farmonlari asosida huquqiy tahlil beriladi. Maqola yakunida institutning hozirgi holati va istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlariga oid xulosalar berilgan.

Калит сўзлар: tergov sudyasi, tergov sudyasi instituti, shaxs huquqlarini ta'minlash, odil sudlov, sud jarayoni, sudning vakolatlari, jinoyat ishida ishni sudga qadar yuritish, ishni sudga qadar yuritishda sudning ishtiroki, xal qilish, sudga shikoyat qilish instituti.

Аннотация

В данной статье кратко описаны правовые основы и практика института следственного судьи Республики Узбекистан. Представлены модели, сформированные на основе опыта зарубежных стран, а также процессы их



имплементации в правовую систему Республики Узбекистан. Также на научно-теоретической основе рассматривается значение института следственного судьи в эффективной защите прав и свобод человека и обеспечении процессуальных гарантий. В статье анализируются полномочия следственного судьи. Кроме того, дается правовой анализ на основе конституционных и законодательных основ деятельности следственного судьи, соответствующих норм Уголовно-процессуального кодекса Республики Узбекистан, Закона «О судах» и указов президента. Статья завершается выводами о современном состоянии института и перспективных направлениях развития.

Ключевые слова: следственный судья, институт следственного судьи, обеспечение прав личности, правосудие, судебный процесс, полномочия суда, рассмотрение уголовных дел; досудебное производство, участие суда в досудебном производстве, решение, институт обжалования в суд.

Abstract

This article briefly describes the legal foundations and practice of the Institute of Investigative Judge of the Republic of Uzbekistan. The models formed on the basis of the experience of foreign countries as well as the processes of their implementation into the legal system of the Republic of Uzbekistan are presented. Also, the importance of the institution of the investigating judge in the effective protection of the rights and freedoms of the person and the provision of procedural guarantees is considered on a scientific and theoretical basis. The article analyzes the powers of the investigating judge. In addition, a legal analysis is given on the basis of the constitutional and legislative foundations of the activities of the investigating judge, the relevant norms of the Criminal Procedure Code of the Republic of Uzbekistan, the Law "On Courts" and presidential decrees. The article



ends with conclusions on the current state of the institute and future directions of development.

Keywords: investigative judge, investigative judge institute, ensuring the rights of the individual, justice, judicial process, court powers, consideration of criminal cases; pre-trial proceedings, court participation in pre-trial proceedings, decision, institute of appeal to the court.

Mamlakatimizda inson huquqlarini himoya qilish tizimini “Inson qadri uchun” tamoyili asosida yangi bosqichga ko‘tarish, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklari himoyasining kafolatlarini kuchaytirish, shuningdek, aholining huquqni muhofaza qilish tizimiga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashga qaratilgan keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, sud-tergov amaliyoti inson huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini ta‘minlash bo‘yicha samarali mexanizmlar to‘liq ishga solinmaganligi, shuningdek, jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan shaxsning erkinlik va shaxsiy daxlsizlikka oid konstitutsiyaviy huquqlarini sud orqali ishonchli ta‘minlash choralarini kuchaytirish zarurati mavjudligini ko‘rsatmoqda. Prezidentimizning PQ-300-Son 11.09.20213.”O‘zbekiston-2030” strategiyasining “xavfsiz va tinchlik sevar davlat” tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish yo‘nalishi bo‘yicha 2023-2024-yillarga mo‘ljallangan MAQSADLI KO‘RSATKICHLARning 4.2. qonun ustuvorligini ta‘minlash va sud-huquq tizimidagi islohotlarning 84-maqsadi: Konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligini ta‘minlash, inson huquq va erkinliklarining ishonchli himoya qilinishini ta‘minlashni sud-huquq islohotlarning bosh mezoniga aylantirish. Jinoyat ishlari bo‘yicha sudlar faoliyatida xolislikni ta‘minlash maqsadida jinoyat ishlari bo‘yicha sudga qadar ish yurituv davrida protseasual qarorlarga sanksiya berish masalasini **alohida sudyalar** tomonidan ko‘rib chiqish tartibini joriy etish yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni loyihasida quyidagilar nazarda tutilgan:



Tergov sudyasi institutini joriy etish;

ushbu sudyalalar **sudga qadar ish yuritish bosqichida** protsesual qarorlarga sanksiya berish masalasini ko'rib chiqishini belgilash. Ushbu farmon ijrosini ta'minlaashga Oliy sud raisi **B. Islamov**, Bosh prokuror **N. Yo'ldoshev**, Ichki ishlar vaziri **P. Bobojonov**, Davlat xavfsizlik xizmati raisi **A. Azizov**, Adliya vaziri **A. Tashkulov** ma'sul etib tayinlandi (2023 dekabr).

“O‘zbekiston — 2030” [strategiyasida](#) belgilangan ustuvor yo‘nalishlardan kelib chiqib, sudlar faoliyati samaradorligini oshirish, ishni sudga qadar yuritishda taraflarning tengligi va tortishuvi prinsipini amalda ta'minlash, shuningdek, tezkor-qidiruv hamda tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini samarali himoya qilinishiga erishish maqsadida:

Oliy sud, Bosh prokuratura, Ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati va Adliya vazirligining 2025-yil 1-yanvardan boshlab quyidagilarni nazarda tutuvchi takliflariga rozilik berilsin:

jinoyat ishlari bo'yicha sudga qadar ish yurituv davrida protsessual qarorlarga sanksiya berish masalasi jinoyat ishlari bo'yicha tuman, shahar sudlarida alohida sudyalalar — tergov sudyalari tomonidan ko'rib chiqilishi tartibini joriy etish;

jinoyat ishlari bo'yicha tuman, shahar sudlarida tergov sudyasi lavozimini kiritish;

jinoyat ishlari bo'yicha sudga qadar ish yurituv davrida tergov sudyasi tomonidan protsessual qarorlarga berilgan sanksiyalar faqatgina apellyatsiya instansiyasida Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi, viloyatlar va Toshkent shahar sudlari, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi tomonidan yakka tartibda qayta ko'rib chiqilishi tartibini belgilash;



tergov sudyalari ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish vakolatini berish;

tergov sudyalari tomonidan ko'rib chiqiladigan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni yuqori instansiyalarda qayta ko'rib chiqishning amaldagi tartibini saqlab qolish.¹

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2024-yil 10-iyun kunidagi PF-89-sonli farmonlarida quyidagilar tergov sudyasi faoliyatining asosiy yo'nalishlari etib belgilandi:

qonunchilikda belgilangan tartibda tergov sudyasiga yuklatilgan vazifalarni adolatli va xolisona bajarish;

qonun ustuvorligini, ijtimoiy adolatni, fuqarolar tinchligi va totuvligini ta'minlash;

fuqarolar va yuridik shaxslarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini sud yo'li bilan samarali himoya qilish.

Belgilab qo'yilsinki:

tergov sudyasi o'z faoliyatini mustaqil amalga oshirib, faqat qonunga bo'ysunadi hamda tergov sudyasiga odil sudlovni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lmagan har qanday vazifalar yuklatilishiga yo'l qo'yilmaydi;

tergov sudyalarini lavozimga tayinlash va lavozimidan ozod qilish, shuningdek, sudyalar korpusini shakllantirish qonunda belgilangan tartibga muvofik, amalga oshiriladi;

¹ Tezkor-qidiruv hamda tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 11.06.2024-y., 06/24/89/0412-son)



tergov sudyasining tashkiliy faoliyatiga rahbarlik tegishincha Qoraqalpog‘iston Respublikasi sudi, viloyatlar va Toshkent shahar sudlari, O‘zbekiston Respublikasi Harbiy sudi raislari tomonidan amalga oshiriladi.

Tergov sudyasi lavozimi uchun shtat birliklari sudlarning mavjud shtat birliklari hamda 2025 — 2027-yillar uchun ajratiladigan qo‘shimcha shtat birliklari hisobidan shakllantirilsin.

Oliy sud raisi B. Islamov jinoyat ishlari bo‘yicha tuman, shahar sudlarining ish hajmidan kelib chiqib ajratiladigan shtat birliklarining cheklangan sonini belgilasin.

Sudyalar oliy kengashi Oliy sud bilan birgalikda 2025-yil 1-yanvarga qadar tergov sudyasi lavozimi joriy etiladigan sudlarning yuqori malakali va mas’uliyatli kadrlar bilan to‘ldirilishini ta’minlasin.

Oliy sud Bosh prokuratura, Ichki ishlar vazirligi hamda boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda uch oy muddatda qonunchilik hujjatlariga ushbu Farmondan kelib chiqadigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar to‘g‘risida takliflarni kiritsin.

Mazkur Farmon ijrosini samarali tashkil qilishga mas’ul va shaxsiy javobgar etib Oliy sud raisi B.D. Islamov belgilansin.

Farmon ijrosini nazorat qilish va ijro uchun mas’ul tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi D.B. Kadirov zimmasiga yuklansin.²

2024-yil 10-iyundagi PF-89-son buyruq bilan 2025-yil 1-yanvardan mamlakatimizda tergov sudyasi instituti joriy etildi va unga jinoiy materiallar bilan birgalikda ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni ham ko‘rish kabi qator

² Tezkor-qidiruv hamda tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida(Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 11.06.2024-y., 06/24/89/0412-son)



vakolatlar berildi. O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga shaxsning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risidagi qonun bilan Jinoyat protsessual kodeksiga yangi prim modda (**“31¹-modda**) kiritildi va tergov sudyasining vakolatlar belgilab berildi.

Tergov sudyasi quyidagi vakolatlarga ega: tergov sudyasiga quyidagi jinoyat materiallarini, shu jumladan sanksiyalar va majburlov choralari qo‘llash masalasini ko‘rib chiqish vakolati berilsin:

a) quyidagilar bo‘yicha sanksiyalar:

qamoqqa olish yoki uy qamog‘i tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llash bilan bog‘liq iltimosnoma;

qamoqda saqlash yoki uy qamog‘i muddatini uzaytirish masalalari bilan bog‘lik, iltimosnoma;

pasportning (harakatlanish hujjatining) amal qilishini to‘xtatib turish to‘g‘risidagi iltimosnoma;

murdani eksqumatsiya qilish haqidagi iltimosnoma;

pochta-telegraf jo‘natmalarini xatlash to‘g‘risidagi iltimosnoma;

tintuv o‘tkazish haqidagi iltimosnoma;

telefonlar va boshqa telekommunikatsiya qurilmalari orqali olib boriladigan so‘zlashuvlarni eshitib turish, ular orqali uzatiladigan axborotni olish haqidagi iltimosnoma;

mol-mulkni xatlash to‘g‘risidagi iltimosnoma;

b) quyidagilar bo‘yicha majburlov choralari:



ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish to'g'risidagi iltimosnoma;

shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish haqidagi iltimosnoma;

ayblanuvchining tibbiy muassasada bo'lishi muddatini uzaytirish to'g'risidagi iltimosnomasi;

ushlab turish muddatini qirq sakkiz soatga qadar uzaytirish to'g'risidagi iltimosnoma;

v) prokurorning guvoh va jabrlanuvchining (fuqaroviy da'vogarning) ko'rsatuvlarini oldindan mustahkamlash to'g'risidagi iltimosnomasi.³

O'zbekiston Respublikasida sud-huquq islohotlarining izchil davom etayotgani tergov sudyasi institutining shakllanishi va rivojlanishida muhim bosqichni tashkil etdi. Mazkur institutning joriy etilishi — jinoyat-protsessual faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini kafolatlash, tergov organlari faoliyati ustidan samarali sud nazoratini o'rnatish hamda adolatli sudlov tamoyillarini ro'yobga chiqarish yo'lidagi dolzarb qadam sifatida e'tirof etiladi.

Amaliy tahlillar shuni ko'rsatadiki, tergov sudyasi tomonidan amalga oshirilayotgan sud nazorati tergov organlari faoliyatida qonuniylik, shaffoflik va javobgarlik tamoyillarini kuchaytiradi. Shu bilan birga, ushbu institutning samaradorligini oshirish uchun qator tizimli choralarni amalga oshirish zarur. Jumladan, tergov sudyalarining mustaqilligini institutsional darajada mustahkamlash, ularning protsessual vakolatlarini yanada aniq belgilash, amaliyotda qarorlar bir xilligi va izchilligini ta'minlash, shuningdek, sudyalarning malakasini oshirish va ularni zamonaviy yuridik standartlarga muvofiq tayyorlash masalalari dolzarb hisoblanadi.

³ O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga shaxsning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2025-y., 03/25/1022/0083-son)



Tahliliy natijalar shuni ko'rsatadiki, tergov sudyasi instituti faqatgina protsessual nazorat vositasi sifatida emas, balki inson huquqlarini ta'minlashning konstitutsiyaviy kafolati sifatida ham faol ishlashi lozim. Shuningdek, xalqaro huquqiy tajriba, xususan, Yevropa Inson huquqlari sudi amaliyoti va boshqa ilg'or davlatlarning sud-nazorat tizimlari bilan uyg'unlashtirilgan yondashuvlarni qo'llash milliy tizim samaradorligini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, tergov sudyasi instituti O'zbekiston Respublikasida huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini qurishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu institutning yanada takomillashuvi sud hokimiyati mustaqilligini mustahkamlash, adolatli sudlov tamoyillarini ro'yobga chiqarish hamda inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikaasi Konstitutsiyasi
2. Jinoyat protsesual kodeksi
3. O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga shaxsning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2025-y., 03/25/1022/0083-son)
4. Tezkor-qidiruv hamda tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 11.06.2024-y., 06/24/89/0412-son)